

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

KAMTARIN VA QALBI DARYO ADABIYOTSHUNOS OLIM

Azimidin Nasirov,
*SamDU professori, filologiya
fanlari doktori*

Dilafro‘z Jabborova,
*SamDU dotsenti, filologiya
fanlari bo‘yicha doktori*

Dunyoda shunday insonlar bo‘ladiki, butun hayotini, borlig‘ini, ilm va salohiyatini ma’lum bir sohaga bog‘shida etadi. Yillar davomida etuk insoniyligi, ilmiy salohiyati, maftunkor adabiy-tanqidiy qarashlari bilan o‘quvchilar, talabalar, ilm vakillarini o‘ziga qaratib kelgan iste’dodli shaxslar juda ko‘p. Ularning har birini o‘z olami, qarashlari, san’at va adabiyotga yondoshuvlari mavjud. Chunki ularning har biri o‘zgacha bir olam. Bu olamning asosida esa etuk insoniy fazilatlar, yillar davomidagi limning zahmati, izlanmishlar, o‘rganish, hayotiy tajribalarning mahsuli mujassamlashganligini inkor etib bo‘lmaydi.

Ana shunday kamtarlikni, salohiyatni, iqtidor va mas’uliyatni o‘zida mujassamlashtirgan adabiyotshunos olimlardan biri ustoz Qurdosh Qahramonovdir. Nurota tizma tog‘larining yon bag‘rida tug‘ilib, keyinchalik butun hayotini ilm olish va olingan ilmlarni yoshlarga etkazishdek, murakkab, ammo qalblarga quvonch ulashuvchi kasbning bilomdoni sifatida hayot kechirayotgan iste’dodli adabiyotshunos sifatidagi e’tirofqa savor bo‘lishi ham bejiz emas. Olimning bir qator darslik, monografiya, risola va maqolalarida o‘zbek adabiyotining turli davrlaridagi adabiy-tanqidiy qarashlarning o‘ziga xos tamoyillarini, zamondosh ijodkorlarning poetik mahoratini ochishga qaratilganligini alohida qayd etish lozim. Biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan tadqiqotlaridan biri “Ijod va e’tiqod”. Abdusaid Ko‘chimov ijodiga chizgilar. – Toshkent, “Akademnashr”, 2022. (F.Burxonova bilan hamkorlikda) asari haqidadir. Bu asar davrimizning iste’dodli shoiri, yozuvchisi, publisist, journalist kabi xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan Abdusaid Ko‘chimov haqidagi mulohazalari o‘rin olgan bo‘lib, asosli tushunchalar matnda mujassamlashganligini kuzatamiz.

Asar bilan tanishish davomida bir qator tanish chehralarni, ularning o‘ziga xos insoniy fazilatlarini, ijodkorning poetik mahoratini, nazmdagi lirik kechinmalar ifodasini, nasrdagi ifoda va tasvir usullarini, ijodiy portret yaratishdagi badiiy mahorati bilan tanishish imkoniga ega bo‘lishimiz, tabiiy hol.

Adabiyotshunos Qurdosh Qahramonov tadqiqotning so‘zboshisida Abdusaid Ko‘chimovning talabalik davri, hayoti, ijodi, adabiy jarayondagi o‘rni haiqida qisqa,

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ammo asosli tushunchalarni bayon etar ekan yozadi: “Hayotda odamlar turfa xil bo‘lishadi. Ayrimlarda xizmat pillipoyalaridan yuqorilagan sayin “eski do‘stlar” unitilib, mavqega mos “yangi do‘stlar” orttirib borish odat tusini olgan. Abdusaid aka qanday lavozimda ishlamasin, olis bolalik xotiralari birga kechgan partadosh do‘sti, talabalaik yillari yoki turli davrlarda orttirgan tanish-bilishlari, yor birodarlari bilan doimo samimiy muloqotini saqlab kelgan va shu jihati bilan qadr-qimmat, izzat-hurmat topganligini” alohida qayd etadi. Bu tushunchalalar shoir, nosir, journalist, jamoat arbobi Abdusaid Ko‘chimovga xos fazilatlar ekanligini inkor etmagani holda, bayon etayotgan qarashlar, muallifning, ya’ni adabiyotshunos olimning o‘ziga ham xos bo‘lgan eng asosiy va insoniy fazilatlaridan biridir. Chunki kechinmalar igodasida muallifning ham u yoki bu darajadagi fazilatlarini matnga ko‘chib boradi. Asar bilan tanishiar ekansiz, undagi obrazlarning poetik talqini haqidagi qarashlarni, ijodkorning badiiy mahoratini namoyon etuvchi bolalarga xos asarlarning tahlilini, kattalarga mos talqinlarning badiiy tahlilini, hayot yoqeligini kashf etuvchi esselarning poetik talqindagi turli jihatlarini juda asosli, haqqoniy tushunchalar bilan o‘quvchiga etkazishga harakat qiladiki, bu ham muallifning o‘z ilmiy uslubini namoyon etadi. Olimning bir qator maqolalarida davrning turli ijodkorlari hayoti va ijodiga tahliliy yondoshuvda, adabiy tanqidiy qarashlarning shakllanishi va tadrijiy taraqqiyotini tahlil etuvchi holalatlarda ham ana shunday uslubni kuzatish mumkin.

Biz tahlil qilishga intilayaotgan asarning so‘zboshisida soddagina ammo zalvorli tarzda: “Mazkur kitobda Abdusaid Ko‘chimovning shoir va adib, publisist sifatidagi poetik olamiga nazar tashlandi, ijodiga xos etakchi jihatlarni baholi qudrat talqin etishga harakat qilindi”, - degan kamtarona, shu bilan bir qatorda juda asosli fikrni qayd etilishining o‘ziyoq, muallifning o‘tkir dididan, asosli qarashlaridan, ilmiy-nazariy yondoshuvidan dalolat beradi.

Olimning “Ijod va e’tiqod” monografiyasining birinchi bobi “Ko‘ngil mulkiga sayohat” deb nomlanib, bunda Abdusaid Ko‘chimovning turli mavzudagi bolalar va kattalar uchun yaratilgan she’riy asarlarining tahliliga bog‘ishlangan. Bunda ijodkorning bolalar adabiyotiga xos talqinlarida beg‘ubor, oniy lahzalarni boshdan kechirayotgan yoshlarga xos tafakkur ifodasiga, shu bilan bir qatorda kattalar she’riyatidagi kechinma va lirik qahramon yaratishdagi ifodalarning poetik xususiyatlariga jiddiy e’tibor qaratadi.

Abdusaid Ko‘chimovning “Qor” she’riy to‘plamidan o‘rin olgan she’rlarni tahlil qilganligini kuzatish mumkin. Shoirning “Yo‘llar” nomli she’rining badiiy xususiyatlarini juda o‘rinli tahlil qiladi. Iste’dodli shoirning 60-70-yillardagi she’rlari tahlil qilinishi bilan birgalikda, yo‘l obrazining o‘ziga xosliklari, metafoqik ma’no ifodalash sabablari, uning inson umri bilan chambarchas bog‘liqligini alohida qayd

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

etilgan. Shoirning turli mavzudagi she‘rlarida yo‘l o‘ziga xos poetik mushohada uyg‘otishga, lirik qahramonning kechinmalaridagi qarashlarni juda go‘zal ifodalsh yo‘lini tanlaganini misralar tahlili asosida ochib berdi: “Bu she‘rlarda biz yosh shoirning izlanish pallasida, ya’ni katta yo‘l boshida ekanini his etamiz, she‘rlarda yoshlikning beg‘ubor damlarini, tabiatning fusunkor manzaralari chizilgan lahzalarni ko‘ramiz” [1, 7-bet], - deb yozadi, adabiyotshunos olim.

Darhaqiqat, yo‘l poetik obrzai jahon she‘riyatida ham, o‘zbek she‘riyatida ham etakchi poetik mushohada uyg‘otuchi obrazlar qatoridan o‘rin olishi bejiz emas. Chunki bu timsol asosida turli qarashlarni, lirik qahramonning o‘y-mushohadalarini, qalb kechinmalarini, his-tuyg‘ularini ifodalashga asos qilib olinganligini kuzatish mumkin. Bir qaraganda, yo‘l timsoli, inson hayoti, yoki ijodiy jarayonlar davri bilan chambarchas bog‘liqligini ham anglash mumkin. Ammo har bir ijodkor bu timsolning turfa xil jihatlarini poetik obraz darajasiga ko‘targani kabi, shoir ham o‘zining poetik tafakkur tarzidagi talqinlarni misralar tarkibiga singdiradi. Shu jihatdan bo‘lsa kerakki, tahlillar davomida fikrning mantiqiyligini, shoir she‘riyatidagi poetik mushoda uyg‘otishga asos bo‘lgan ifoda shakllarining yana-da, teranqoq ochib berilishini ham kuzatamiz. Chunki shoirning bu poetik obrazni o‘zida mujassamlashtirgan she‘rlar talaygina ekanligini ham alohida qayd etgani holda: “Ular mazmunan har xil bo‘lsa-da, mohiyatan bitta maxrajga birlashadi. U ham bo‘lsa, hayot va ijod bulog‘ida qaynash, o‘zini, o‘zligini topishga bo‘lgan kuchli ehtiyoj” ekanligini yaxshi his etadi. Aynan shu jihatdan bu mavzudagi she‘rlarning tahliliga yondoshilgan va asosli xulosalalar chiqarish imkonini bergan.

Abdusaid Ko‘chimovning ilk she‘rlaridan boshlab, keyingi yillarda chop etilgan she‘rlarigacha o‘ziga xos talqin mavjudligini, uning tarkibida insonni botinidagi kechinmalar turli poetik obrazlar asosida yuzaga chiqanligini alohida qayd etishadi. Shoirning bir qator voqeaband she‘rlarini tahlil qiladi va uning xususiyatlarini ochib beradi. Chunki oddiygina yo‘l poetik obrazi shoirning ustozlar an‘anasini izchillik bilan davom ettirganligi, falsafiy qarashlarni, xalqona ohanglar asosida badiiy ifodalab, hayot haqiqatining badiiylikdagi talqinini asoslay olganligi ko‘rsatib berilgan. Lirik qahramon kechinmalaridagi istirob, quvonch, hayotni anglashning mashaqqatli yo‘llarini mahorat bilan tasvirlaganligiga diqqat qilgan. Shoir she‘riyatidagi yo‘l obrazini o‘zida mujassamlashtirgan turkum she‘rlarning badiiy xususiyatlari ochib berilishi bilan bir qatorda, ijodkorning izdoshlik va mahorati ham yorqin misollar asosida yoritilgan. Bu esa muallifning: “yo‘l poetik obrazi turkumiga kirgan she‘rlarini faqat ijod yo‘li, she‘riyat maydoni haqida emas, balki hayot yo‘li, ijtimoiy borliq bilan chambarchas bog‘langan she‘rlar sifatida bohalash” imkonini berganligini ham alohida qayd etish lozim.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

“Nosirnavislik mahorati” nomli bobida, endi Abdusaid Ko‘chimovning nosir, adib sifatidagi faoliyatini, badiiy mahoratini bir qator qissa va hikoyalarining tahlili misolida ochib beradi. Adibning o‘zbek nasrining taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini alohida qayd etgani holda, soksoninchi yillarning ikkinchi yarmidagi, o‘zbek xalqining fojiali hayotini talqin etgan asarlari “Boychechak”, “O‘g‘il”, “Oq kaptarlar oroli” kabi qissa va hikoyalaridagi talqinlar, achchiq hayot haqiqatini ifodalashdagi talqinlariga alohida urg‘u bergan. To‘g‘ri, “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” kabi murakkab davrni talqin etgan Odil Yoqubovning “Adolat manzili”, O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” kabi romanlar mavjud bo‘lsa-da, iste’dodli adib A.Ko‘chimov o‘ziga xos uslubda davrning murakkab qirralarini ochib bera olganligini, qayd qilingan asarlar tahlili misolida asoslay olgan.

Adabiyotshunos olim, adibning “O‘g‘il” hikoyasida ilgari surilgan qarashlarga jiddiy yondashadi, Nishonboy tabelchi, adolatsizlikning qurboni bo‘lgan raisning o‘g‘li Avaz obrazlarining matndagi badiiy funksiyasini tahlillar davomida juda yaxshi yoritganligi, bu esa murakkab davrning o‘ziga xos badiiy talqinlari ekanligiga diqqat qaratadi.

Tahlillarning izchilligiga nazar solar ekanmiz, adabiyotshunos olimning tahliliy qarashlarida juda asosli tushanchalar mujassamlashganligini kuzatish mumkin: “Bunday ziddiyatli kechinmalar, bir tomondan, pushaymonlik, boshqa tomondan, yosh bolani aldash tabelchining ham davr muhr boshgan mutelik qiyofasini ochib beradi. Uning ma’naviy olami davr mag‘ori bilan qoplangan, muhitga bo‘ysunib, hal qiluvchi pallalarda ojizona xiyonat ko‘chasiga kirishga mahkum” ekanligini, tahliliy qarashlarga, mulohazalarga singdirib boriladi. Yozuvchining bir qator asarlaridagi obrazlar olamining o‘ziga xosliklari zamirida, ijodkor badiiy mahorati etakchilik qilishiga ham diqqat qilingan. Tahlillar davomida adibning nasriy asarlaridagi talqin usullari, badiiy qahramon yaratishdagi ijodkorlik mahoratlari juda asosli qarashlar misolida ochib beriladi. Abdusaid Ko‘chimovning yaratgan obrazlari insonning tabiat, jamiyat, borliq bilan uzviy birlikda ekanligini, qator asarlarida ilgari surgan talqinlar misolida ochib beriladiki, bu esa ijodiy jarayonning o‘ziga xosliklarini anglash imkonini beradi.

“Adibning essenavislik mahorati” nomli uchinchi bobida esa, Abdusaid Ko‘chimovning bir qator esse janridagi asarlari tahlil qilinadi. Esse yaratish ham, ijodkordan katta ijodiy, hayotiy mahoratni talab etishi, bu esa muallif talqinlarida badiiy ifodasini topganligi qayd etiladi. Adibning “El suv ichgan daryolar” asari qayta ishlanib, to‘ldirilib “Buni hayot deydilar...” nomi bilan nashr ettirilganligi, uning tarkibidagi esselarning tahlili va ijodkor mahoratini yoritishga qaratilgan qator tushunchalarni, tahliliy mulohazalarni o‘z tarkibiga olgan. O‘zbek adabiyotining

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

iste’dodli darg‘alari bilan bir qatorda adabiyotshunoslarning hayoti, adabiy-tanqidiy qarashlari, ulardagi insoniy fazilatlarining etakchi xususiyatalari haqida so‘z yuritilganligini qayd etgani holada, adabiyotshunos olim yozadi: “Albatta, essedan joy olgan Odil Yoqubov, Pirmat Shermuhamedov, Mahmud Sa’diy, Azim Suyun, Qozoqboy Yo‘ldoshev kabi el suygan ijodkorlarning betimsol bitiklari sizni bizning ruhimizni poklashga, ma’naviyatimizni boyitishga xizmat qilgani shubhasiz”, - ekanligini tahliliy misollar bilan asoslab bergan. Yozuvchining esselarida adiblar, shoirlar, adabiyotshunoslar obrazi yaratiladiki, bu esa kitobxonni ma’lum bir ijodkorlar, ularning o‘ziga xos fazilatlarini, ijodiy jarayonining ma’lum bir qirralari haqida xulosalar chiqarishga imkon topadi.

Darhaqiqat, Qurdosh Qahramonovning tahliliy yondoshuvlarida olam va odamni anglashdagi ijodkor poetik mahoratining o‘ziga xos tamoyillarini, shoir, nosir, essenavis, jurnalist va eng asosiysi insoniy fazilatlarini bilan ham, inson qalbidan joy olgan shaxs siymosini juda asosli talqin etganligini alohida qayd etish mumkin. Monografiyadan o‘rin olgan tahlillarda Abdusaid Ko‘chimovning turli janrlardagi asarlarining badiiy xususiyatlari, poetik obraz yaratish jarayonlari bir qator asarlari misolida tahlil qilinganligini ham kuzatamiz.

Xullas, adabiyotshunos olim Qurdosh Qahramonovning har bir asarida o‘ziga xos tahliliy qarashlarni, mulohaza va tushunchalarni, badiiy mukammal ilmiy qarashlarning ifodasi etakchilik qiladi. Bularning barchasi adabiyotshunos olimning yillar davomidagi samarali ijodiy izlanishlarining mahsuli sifatida baholash ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qahramonov Q., Burxonova F. Ijod va e’tiqod. Abdusaid Ko‘chimov ijodiga chizgilar. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 112 bet.
2. Ko‘chimov A. Qor. Saylanma. II. Nazm. – Toshkent: “Sangzor”, 2013. – 240 bet.